

XALQARO ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI TARIXI VA UNING ILMIY NAZARIY
ASOSLARI

Saitmurodov Jobirjon Boymurod o'g'li

*A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va
yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti
yetakchi ilmiy xodimi*

Turdiqulova Gulmira Obidqul qizi

Toshkent Moliya Instituti

2-bosqich magistranti

Telefon raqami: 94 341 03 93

e-mail: saitmurodovjobir@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ishchi kuchi migratsiyasining vujudga kelishi tarixi, uning ilmiy nazariy asoslari ochib beriladi. Shuningdek, ishchi kuchi migratsiyasining dunyoning ham taraqqiy etgan davlatlariga, ham rivojlanayotgan davlatlarga xosligi yetakchi xalqaro tashkilotlarning ilmiy natijalari asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Ishchi kuchi, ishchi kuchi migratsiyasi, aqlning oqib o'tishi, emigratsiya, immigratsiya, reemigratsiya, migratsion qoldiq, Ernst Georg Ravenstein.*

ИСТОРИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ И ЕЕ НАУЧНО-
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Аннотация: *В данной статье раскрывается история трудовой миграции, ее научно-теоретические основы. Также анализируется характер трудовой миграции как для развитых, так и для развивающихся стран мира на основе научных результатов ведущих международных организаций.*

Ключевые слова: *Рабочая сила, трудовая миграция, утечка мозгов, эмиграция, иммиграция, реэмиграция, миграционный остаток, Эрнст Георг Равенштейн.*

HISTORY OF INTERNATIONAL LABOR MIGRATION AND ITS SCIENTIFIC
THEORETICAL FOUNDATIONS

Annotation: *This article reveals the history of labor migration, its scientific and theoretical foundations. Also, the nature of labor migration for both developed and developing countries of the world is analyzed based on the scientific results of leading international organizations.*

Keywords: *Work force, labor migration, brain drain, emigration, immigration, re-emigration, migration residue, Ernst Georg Ravenstein.*

Kirish.

Bugungi globallashuv dunyo aholisining faol harakati va migratsiya jarayonlariga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Ayni paytda aholi migratsiyasi rivojlanayotgan davlatlar uchun iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omillariga aylanib bormoqda. Hozirgi zamonaviy bosqichda u yoki bu darajada boʻlsa-da, bironta ham mamlakat migratsiya munosabatlaridan chetda qolgani yoʻq. Mamlakatlar oʻrtasidagi ishchi kuchi xalqaro migratsiyaning milliy mehnat bozorini yagona bozorga birlashtiradi. Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT)ning axborotiga koʻra, xalqaro migrantlarning umumiy soni 270 mln atrofida, ularning uchdan ikki qismi mehnat migrantlari (yaʼni ishchi kuchi)ga toʻgʻri keladi. Shu oʻrinda tabiiy savol tugʻiladi migratsiya nima? - Va u qachondan mavjud? Ishchi kuchi deganda kim nazarda tutilmoqda?

Avvalo biz migratsiya tushunchasini izohlashimiz lozim. Migratsiya lotin tilidan tarjima qilinganda “koʻchish”, “koʻchaman” maʼnosini ifodalaydi. Migratsiyaning bir qator turlari mavjud, aholi migratsiyasi, hayvonlar migratsiyasi, elementlar migratsiyasi, energiya migratsiyasi, kapital migratsiyasi va boshqalar.

Migratsiya jarayonlarini tadqiq qilgan turli soha olimlari uni turlicha tavsiflashga harakat qilgan. Patrik Mann oʻzining “Migration in World history” asarida aholi migratsiyasi jarayonlarini uch turga ajratadi:

- mehnat migratsiyasi;
- qochqinlar migratsiyasi;
- urbanizatsiya jarayonlari.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Biz ushbu tadqiqotda ishchi kuchi migratsiyasi oid boʻlgan aholi migratsiyasini oʻrganishni maqsad qilganmiz.

Ishchi kuchi - bu kishilar aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yigʻindisi boʻlib, jamiyat aʼzolarining asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir.

Migratsiya oʻzining uzoq oʻtmishiga ega boʻlib, dastlabki migratsiya jarayonlari tabiiy qonuniyatlar taʼsirida Ilk paleolit (mil.av.1 mln - 100 ming yilliklarni oʻz ichiga oladi) davrining oxirida havo haroratining keskin sovub ketib, muzlashi natijasida sodir boʻlgan. Yoki neolit davri migratsiyasi ham uzoq davom etadi. Mil.avv. II-ming yillikda yuz bergan oriylar migratsiyasi gʻarbdan-sharqqa amalga oshirilgan. Keyingi davrlarda ham aholi migratsiyasi ixtiyoriy, majburiy tartibda boʻlsada, davom etgan. Milodning dastlabki IV-VI asrlarda “Xalqlarning buyuk koʻchishi” nomi bilan yuz bergan migratsiya jarayonlari oqibati global dunyo ijtimoiy-siyosiy hayotini butkul oʻzgartirib, Gʻarbiy Rim imperiyasini qulashiga sabab boʻladi. XI-XIII asrlarda sharqdan-gʻarbga siljigan turk-moʻgʻul qabilalari migratsiyasi ham anchayin ahamiyatlidir. XVI asrda “buyuk geografik kashfiyotlar” yevropaliklar uchun katta migratsion jarayonlarni boshlab berdi. “Yangi dunyo” yoki “Amerika”ning kashf etilishi yevropadan, qolaversa dunyoning turli tomonlaridan migrantlar harakatini vujudga keltirdi. Koʻplab iqtisodiy tahlilchilar migratsiya tarixi va buguni haqida gapirganida XIX asr oxirigacha yuz bergan migratsiya jarayonlarini koʻproq tabiiy qonuniyatlar (masalan havoning isib ketishi, sovushi, suv tanqisligi va boshqalar) taʼsirida yuz berganini taʼkidlaydi. XIX asr oxiri - XX asr boshlaridan yuz berayotgan migratsiya jarayonini koʻproq iqtisodiy omillarni sabab qilib koʻrsatishmoqda. Albatta uning asosi yevropada ilm-fanning rivojlanishi natijasida Amerika qitʼasini kashf etilishi, undan keyin yuz bergan fan-texnika inqilobi va uning natijalarini alohida aytish lozim.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Aynan shu davrdan boshlab, ishchi kuchi migratsiyasining ilmiy-nazariy asoslari paydo bo‘ldi. ishchi kuchi migratsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rgangan nemis geograf va kartograf olimi Ernst Georg Ravenstein (1834-1913)dir. U o‘zining katta ilmiy faoliyatini Buyuk Britaniya Harbiy idorasining “Topografiya bo‘limi”da va “Qirolik geografiya va statistika jamiyati”da olib bordi. U 1880-yillarda o‘zining “Migratsiya qonunlari” nomli asarini yozdi. Ushbu asarning dunyoga kelishi “sanoat to‘ntarishi” natijasida Buyuk Britaniya va boshqa rivojlangan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatning tubdan o‘zgarib boshlashi bilan bog‘liq edi. Sababi, XVIII - asr 60 yillaridan Buyuk Britaniyada boshlangan sanoat to‘ntarishi, u yerdagi kishilarning hayot tarzini o‘zgartira boshladi. Yangi shaharlar paydo bo‘lib, u yerga qishloqlardan ko‘plab odamlar ish izlab keldilar. Qo‘l mehnatiga asoslangan manufaktura o‘z ahamiyatini yo‘qotib, eski qishloq hayoti oldingidek jozibador bo‘lmay qoldi. Mashinalashgan yirik industriya endi hamma ishlarni texnika yordamida bajardi. Tabiiy xom ashyoni qazib olish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda ham texnika omili ustuvorlik qildi. Masalan: birgina Britaniya qishloqlarining o‘zida ko‘plab kishilar ishsiz qoldilar va bu ommaviy tartibda ularning shaharlardagi zavod, fabrika va boshqa xizmat ko‘rsatish sohaslaridan ish topishiga olib keldi. Bu holat bir mamlakat ichida yuz berayotgan, ishchi kuchi migratsiyasi bo‘lib, boshqa G‘arbiy Yevropa davlatlariga ham xos jarayon edi. Ishchi kuchi migratsiyasi xalqaro miqyosda ham tezlashdi, ayniqsa bu holat AQSHga ish va yaxshi hayot izlab borayotgan irland, shotland, nemis, fransuz, italyan, polyak va boshqa yevropalik kishilar turmush tarzida yaqqol namoyon bo‘layotgan edi. Yuz berayotgan ushbu jarayonlar olimlar, jumladan Ernst Georg Ravensteinni ham befarq qoldirmagan edi. “Migratsiya qonunlari”da ilk bora ishchi kuchi migratsiyasining ilmiy-nazariy asoslari yaratilib, ishchi kuchi migratsiyasining paydo bo‘lish sabablari, oqibatlarini, uning ijobiy va salbiy tomonlari, asosiy tushuncha va kategoriyalari tahlil qilingan.

Ernst Georg Ravenstein ishchi kuchi migratsiyasining jahon iqtisodiyotidagi o‘rni ahamiyatli ekanligiga to‘xtalib, uning kelgusida rivojlanishini ta’kidlaydi. U ishchi kuchi kuchi migratsiyasining asosiy xususiyatlarini quyidagi omillar bilan belgilaydi:

- Ikki geografik hudud o‘rtasidagi migratsiya oqimining davomiyligi mazkur hududlar orasidagi masofaga teskari proporsionalligi;
 - Uzoq masofaga ketayotgan migrantlar asosan savdo va sanoat jihatdan taraqqiy etgan yirik shaharlarga intilishi;
 - Migratsiya rivojlanishining asosiy omili iqtisodiy omil bilan bog‘liqligi.
- Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi yuz berishi sabablari:
- Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasining turlichaligi;
 - Ish haqi miqdori o‘rtasida milliy farqlarning mavjudligi;
 - Ishsizlikning mavjudligi;
 - Kapitalning xalqaro harakati va tarnsmilliy korporatsiyalar faoliyati¹⁸¹.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasining turlichaligi ishchi kuchi harakatlanishining asosiy sabablaridan biri

¹⁸¹ Ernest George Ravenstein: The Laws of Migration, 1885 By John Corbett. 2001-2011 by Regents of University of California, Santa Barbara. p.4.

hisoblanadi. Bugun dunyoning iqtisodiy-rivojlanish geografiyasi turlichadir. Hattoki, bir minataqa doirasida ham buni kuzatish mumkin. Dunyo miqyosida olib qaraganda, g‘arb iqtisodiy rivojlangan, sharqqa nisbatan. Lekin g‘arbning o‘zida ham iqtisodiy rivojlanish bir tekisda emas, masalan: Yevropaning g‘arbi ,sharqiy va janubiy qismiga nisbatan rivojlangan. Amerika qit‘asining shimolidagi AQSH va Kanada Karib havzasi davlatlari, Janubiy Amerika davlatlari va Meksikadan iqtisodiy rivojlangan. Bu holatni biz Osiyo va Afrika qit‘asida ham kuzatishimiz mumkin.

1.1.-jadval

Iqtisodiyoti yuqori bo‘lgan davlatlar

№	Davlatlar nomi	Xalqaro jamg‘armasi valyuta		Jahon Banki	
		YIMning taxminiy hisobi	Yil	YIMning taxminiy hisobi	Yil
	Dunyo bo‘yicha	105,568,776	2023	96,513,077	2021
1	AQSH	26,854,599	2023	22,996,100	2021
2	Xitoy	19,373,586	2023	17,734,063	2021
3	Yaponiya	4,409,738	2023	4,937,422	2021
4	Germaniya	4,308,854	2023	4,223,116	2021
5	Hindiston	3,736,882	2023	3,173,398	2021
6	Buyuk Britaniya	3,158,938	2023	3,186,860	2021
7	Fransiya	2,923,489	2023	2,937,473	2021
8	Italiya	2,169,745	2023	2,107,703	2021
9	Kanada	2,089,672	2023	1,988,336	2021
0	Braziliya	2,081,235	2023	1,608,981	2021
1	Rossiya	2,062,649	2023	1,775,800	2021
2	Jabubiy Koreya	1,721,909	2023	1,798,534	2021
3	Avstraliya	1,707,548	2023	1,542,660	2021
4	Meksika	1,663,164	2023	1,293,038	2021
5	Ispaniya	1,492,432	2023	1,425,277	2021
6	Indoneziya	1,391,778	2023	1,186,093	2021
7	Nederlandiya	1,080,880	2023	1,018,007	2021
8	Saudiya Arabistoni	1,061,902	2023	833,541	2021
9	Turkiya	1,029,303	2023	815,272	2021
0	Shvetsariya	869,601	2023	812,867	2021

Yuqoridagi jadval bizga Yalpi ichki mahsulot hajmi eng yuqori bo'lgan 20 ta davlatning Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki bo'yicha tahlilini ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkichlar asosiy xalqaro ishchi kuchini import qiluvchi ma'nosini anglatmaydi. Chunki, Hindiston, Xitoy, Rossiya, Meksika, Turkiya, Indoneziya, Braziliya kabi jadvalda ko'rsatilgan davlatlar ham ish kuchini ma'lum miqdorda qabul qiladi, ham kata miqdorda eksport qiluvchi davlatlar sirasiga kiradi. Keyingi jadval iqtisodiyoti sust rivojlangan davlatlarni ko'rsatishdan iborat. Maqsad dunyo davlatlarining iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatishdan iborat.

1.2.-jadval

Iqtisodiyoti past rivojlangan davlatlar

№	Davlatlar nomi	Xalqaro valyuta jamg'armasi		Jahon Banki	
		YIMning taxminiy hisobi	Yil	YIMning taxminiy hisobi	Yil
124	Afg'oniston	20,136	2020	14,787	2021
125	Mozambik	19,909	2023	16,096	2021
126	Falastin	19,698	2022	18,037	2021
127	Botswana	19,572	2023	17,614	2021
128	Yaman	19,529	2023	21,062	2021
130	Benin	19,236	2023	17,786	2021
133	Mongoliya	16,908	2023	15,098	2021
134	Niger	16,617	2023	14,951	2021
137	Madagaskar	15,969	2023	14,637	2021
138	Shimoliy Koreya	—	—	—	—
140	Suriya	-	-	11,080	2020
142	Ekvator Gvineyasi	15,099	2023	12,269	2021
143	Mavritaniya	14,570	2023	11,157	2021
145	Laos	14,091	2023	18,827	2021
146	Namibiya	13,486	2023	12,236	2021
147	Ruanda	13,149	2023	11,070	2021
148	Kongo	13,031	2023	12,524	2021
149	Tojikiston	12,796	2023	8,746	2021
150	Qirg'iziston	12,309	2023	8,543	2021
151	Chad	11,962	2023	11,780	2021
152	Malavi	11,277	2023	12,627	2021

№	Davlatlar nomi	Xalqaro valyuta jamg'armasi		Jahon Banki	
		YIMning taxminiy hisobi	Yil	YIMning taxminiy hisobi	Yil
153	Mavritaniya	10,966	2023	8,228	2021

Ushbu 1.2.-jadvalda ko'rsatilgan davlatlar iqtisodiyoti endigina rivojlanayotgan yoki passiv davlatlardir. Ular ko'proq ishchi kuchini eksport qiluvchilar hisoblanadi.

Ish haqi miqdori o'rtasida milliy farqlarning mavjudligi ham ishchi kuchi migratsiyasini hosil qiluvchi omillardandir. Jahondagi ko'plab davlatlarda mehnatga haq to'lash miqdori turlichadir. AQSH, Kanada, G'arbiy Yevropa, Skandinaviya davlatlari, ba'zi arab davlatlari, Isroil, Singapur, Avstraliya kabi mamlakatlarda mehnatga yuqori ish haqqi to'lansa, Kuba, Kongo, Efiopiya, Senegal, Gana, Hindiston, Bangladesh, Indoneziya, Qirg'iziston, Tojikiston, Myanma, Nepal, Laos va boshqalarda ka mish haqqi to'lanadi. Mehnatga haq to'lashdagi jozibadorlik doim kam ish haqqi oluvchi davlatlardagi aholini o'ziga jalb etib keladi.

Ishsizlikning mavjudligi ham ishchi kuchi migratsiyasiga sabab bo'luvchi asosiy omillardandir. Ishsizlikning mavjudligini olimlar asosan ikki xil usulda ko'rib chiqishadi. Birinchisi, aholisi zich joylashgan davlatlardagi ishsizlikning mavjudligi (Masalan: Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Nigeriya, Braziliya, Pokiston, Bangladesh, Misr, Eron, Turkiya kabi davlatlar aholisining ko'pligi tabiiy ravishda ishsizlikni keltirib chiqaradi). Ikkinchisi, mamlakat umumiy aholisida ishsizlikning yuqoriligi bilan. Jahon Bankining 2020-yilgi ma'lumotlarida Janubiy Afrika Respublikasining 29.2% aholisi ishsiz ko'rsatilgan bo'lsa, Kosovoda 26.2 %, Jibutida 26.1%, Falastinda 25.9 %, Ekvator Gvineyasida 25 %, Botsvanada 24.9 %, Grenadada 22.9 %, Esvatinida 22.7 %, Lesotoda 22.4 %, Gabonda 20.4 % ni tashkil qilgan bu ko'rsatkichlar ishchi kuchini tabiiy ravishda migratsiyaga undaydi.

Kapitalning xalqaro harakati va transmilliy korporatsiyalar faoliyati XX-asr oxiri - XXI-asr boshlariga kelib, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasiga ta'sirini oshirib bormoqda. Kapitalning xalqaro harakati bu - kapital egasiga daromad olib keluvchi, davlatlar orasidagi qarama-qarshi harakatdir. Istalgan davlat bir vaqtning o'zida kapitalning importyori va eksportyori bo'la oladi. Sanoat to'ntarishi va undan keying davrlarda asosan iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar kapitalni chetga chiqarish bilan shug'ullangan bo'lsa, bugungi globallashuv sharoitida istalgan bir davlat, ushbu faoliyat bilan shug'ullana oladi. Jahon iqtisodiyotining rivojlanib borishida asosiy o'rin egallovchi transmilliy korporatsiyalar faoliyati xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida ham o'z ta'siriga egadir. Transmilliy korporatsiyalar - o'z mamlakatidan tashqarida, boshqa bir davlatlar hududida tovarlar yoki xizmatlar ishlab chiqarishga egalik qiluvchi va nazorat etuvchi iqtisodiy tashkilotdir. Black's Law lug'atidagi ma'lumotga ko'ra "o'z daromadining 25 % dan ortig'ini boshqa bir davlat hududidagi iqtisodiy faoliyatdan qo'lga kiritsa bunday iqtisodiy tashkilotni transmilliy korporatsiya deb atasak bo'ladi". XXI asrda dunyodagi ko'plab Transmilliy korporatsiyalar AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, va boshqa davlatlarga to'g'ri keladi. So'ngi yillarda esa, Xitoyda transmilliy korporatsiyalar soni oshib bormoqda.

Jahon iqtisodiyotining o'ziga xos "umurtqa pog'onasi" bo'lgan zamonaviy Transmilliy korporatsiyalarning o'ziga xos belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- Ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish faoliyatining katta qismini bosh shtab-kvartira joylashgan mamlakat iqtisodiy makoni chegarasidan tashqariga olib chiqish;
- Turli davlatlarda shahobchalar, sho‘ba va assotsiatsiyalangan kompaniyalarning katta tarmog‘ini shakllantirish;
- Iqtisodiy faoliyatni samarali bashoratlash va rejalashtirish sharoitida tashqi va ichki investitsiyon oqimlarni boshqarish;
- Kapitallar, ishchi kuchi, axborot ko‘chishining firma ichkarisidagi kanallarining ko‘pligi.



Immigratsiya - bir mamlakatga boshqa mamlakatlardan mehnatga layoqatli ishchi kuchining kelishi yoki oqib o‘tishi hisoblanadi. Bugungi kunda immigrantlarni o‘ziga qabul qilayotgan iqtisodiy rivojlangan, mehnatga haq to‘lash jozibador bo‘lgan davlatlar boshida AQSH davlati turibdi. Immigratsiyani o‘rganish markazi ma’lumotlariga ko‘ra, AQSHda 44 mln immigrantlar mavjud. AQSH aholisining har sakkizinchisi, (13 %) chet elda tug‘ilgan yoki xorijlikdir. Qo‘shma Shtatlardagi immigrantlarning 24.8 % Meksikadan, 5.9 % Hindistondan, 4.9 % Xitoydan, 4.5 % Filippindan, 3.1 % Salvadordan, 56.8 % boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Qo‘shma Shtatlardan tashqari, Kanada, G‘arbiy Yevropa, Avstraliya, Arab davlatlari immigrantlarni o‘ziga jalb qilayotgan davlatlardir.

Emigratsiya - bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ishchi kuchining chiqib ketishi hisoblanadi. (Masalan: Rossiya federatsiya fuqarolarining ish izlab Germaniyaga ko‘chib o‘tishi Rossiya uchun emigrant, Germaniya uchun immigrant hisoblanadi). Ishchi kuchining boshqa mamlakatga chiqib ketishi asosan ish haqining pastligi, ishsizlikning yuqoriligi, siyosiy beqarorlik va boshqalar sabab sodir bo‘lmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, quyidagi davlatlar eng ko‘p emigrantlarga ega. Hindistondan 17.9 mln, Meksikadan 11.1 mln, Rossiyadan 10.8 mln, Xitoydan 10.5 mln, Suriyadan 8.5 mln, Bangladeshdan 7.4 mlndan, Pokistondan 6.3 mln, Ukrainadan 6.1 mln, Filippindan 6.1 mln, Afg‘onistondan 5.9 mln ortiq kishi emigrant sifatida boshqa mamlakatlarga ketgan. Hindiston, Xitoy, Bangladesh, Pokiston, Filippin, Misr, Eron, Indoneziya, Turkiya, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va boshqa ko‘plab davlatlarda emigrantlar ish haqining pastligi, ishsizlikning yuqoriligi sabab mamlakatni tark etsa, Yaman, Suriya, Afg‘oniston, Iroq, Ukraina, Falastin kabi davlatlarda emigrantlar siyosiy beqarorlik tufayli boshqa davlatlarga yo‘l olmoqda.

Migratsion qoldiq – bir mamlakatdagi ishchi kuchining emigratsiyasi va immigratsiyasi o'rtasidagi farqdir. Ushbu kategoriya orqali mamlakatga kelayotgan va undan chiqib ketayotganlar tahlil qilinadi. Masalan, BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda Rossiya Federatsiyasiga kelgan immigrantlar 11.6 mlnni, uni tark etgan emigrantlar 10.8 mlnni tashkil qilgan. Ko'rib turganimizdek oradagi farq sezilarli darajada.

Aqlning oqib o'tishi – yuqori malakali mutaxassislarning mamlakatlararo migratsiyasi hisoblanadi. Qobiliyatli mutaxassislar turli sabablarga ko'ra, o'z mamlakatlarini tark etadilar. XX asr oxiri - XXI asr boshlarida asosan MDH, Janubiy-sharqiy Osiyo mamlaktlarida shunday tendensiya davom etmoqda. Tarixan olib qaraganda Yevropadan – Amerikaga "aqlning oqib o'tishi" bugungi Qo'shma Shtatlardagi rivojlanishga asos bo'lib xizmat qilgan. Ishchi kuchi eksporti milliy iqtisodiyotda ijobiy oqibatlar bilan bir qatorda salbiy oqibatlar ham olib keladi. Bu eng avvalo «aqli kishilarning ketib kolishi» (inglizchadan brain-drain) deb ataluvchi yuqori malakali mutaxassislarning xorijga ketib qolishi bilan bog'liqdir. Bu jarayonning mohiyati shundaki, mutaxassislar turmush darajasi past davlatlardan yuqori ish haqi, yaxshi mehnat sharoitlari, ijodiy imkoniyatlarni amalga oshirishga yetarli shart-sharoit va nihoyat ijtimoiy kafolatlar yaratib bera oladigan mamlakatlarga ketib qoladi. Ishchi kuchini jo'natuvchi davlat uchun salbiy bo'lgan jihatlar qabul qilib oluvchi mamlakatlar uchun ijobiy hisoblanadi. Chunki kirib keluvchi ishchilarning aksariyat qismini yuqori darajada ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faol bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Bunga misol sifatida Polshadan 1983-1987 yillarda yosh kadrlarni chiqib ketishi bilan bog'liq vaziyatni keltirish mumkin: bu mamlakatni tark etganlarning 15 foizini (50 ming kishi atrofida) oliy ma'lumotlilar tashkil etgan, bu Polsha oliy o'quv yurtlarining bir yillik bitiruvchilariga to'g'ri keladi. "Intellektual migratsiya" jami ishchi kuchi migratsiyasi miqdorining 3–5 foiziga teng bo'lsa-da, hozirgi paytda bu ulushning yildan-yilga ortib borishi kuzatilmoqda, binobarin jo'natuvchi mamlakat uchun iqtisodiy zarar miqdori ham oshib boryapti. Bu zarar ba'zi bir mamlakatlarning milliy daromadining 10 foizigacha teng bo'lmoqda. Mutaxassislarni chetga chiqib ketishi jahon bozorida raqiblarning mavqeini kuchaytiradi, Chunki bu mutaxassislarning ko'pchiligi yirik transmilliy korporatsiyalarga ishga joylashadi. «Yuqori sifatli» ishchi kuchini o'ziga jalb qiluvchi asosiy markazlar eng boy mamlakatlar: AQSh, Kanada, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, kamroq darajada Yaponiya, Singapur, Tayvan sanaladi. Aqli kishilarni chiqib ketishining asosiy kanallari birinchidan, xorijiy talabalar va aspirantlarni chet eldagi universitetlari tomonidan jalb etilishi, ikkinchidan, tajribali mutaxassislarni xalqaro kompaniyalarda ishga taklif etilishi hisoblanadi.

Reemigratsiya – emigrantlarning vatanlariga doimiy yashash uchun qaytib kelishlaridir. Emigrantlarning boshqa bir mamlakatda ma'lum vaqt ishlab, keyin o'z vataniga qaytib kelishi, ulardagi qadriyatlar, an'analarga sodiqlik kabi axloqiy sifatleri bilan bevosita bog'liqdir.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, ishchi kuchi migratsiyasining tarixiy ildizlari insoniyatning ibtidoiy davrlariga borib taqaladi. Mehnat qilish qobiliyati mavjud bo'lgan kishilar doim o'zi yashayotgan makonlarini o'zgartirib turgan. Buning asl sababi, hududga xos bo'lgan tabiiy qonuniyatlar va ushbu hududlarda yashayotgan insonlarning e'tiqodi, milliy qadriyatlari, an'analari asosida shakllangan ijtimoiy

qonuniyatlardir. Ushbu qonuniyatlardan birisi yoki ikkinchisi ishchi kuchini doim migratsiya qilinishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Ernest George Ravenstein: The Laws of Migration, 1885 By John Corbett. 2001-2011 by Regents of University of California, Santa Barbara. p.4.
2. <https://www.imf.org/en/Countries>
3. <https://www.worldbank.org/en/home>